IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

SIFATLI TA`LIM – TARAQQIYOT GAROVIDIR

Ikromova Yulduzoy Erkin qizi
A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchi
Nurmamatova Feruza Muxtor qizi
Vafoqulova Shahnozabonu G`ofurjon qizi
A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: So`nggi yilllarda ta`lim sohasiga bo`lgan e`tibor tubdan o`zgardi. Ta`limga bo`lgan e`tibor esa o`z navbatida uning ajralmas qismi hisoblangan o`qituvchilarga bo`lgan e`tiborni ham o`zgarishiga sabab bo`ldi. Shu boisdan bugungi yosh kadrlar orasida aynan ustoz – murabbiylik kasbini egallashni xohlovchi yoshlar soni tobora oshib bormoqda. Xorijiy davlatlarning ta`lim tizimiga va o`qituvchilarga berilayotgan e`tibor bilan o`zimizdagi imkoniyatlarni solishtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, bizning ta`lim tizimimiz ko`zlangan maqsadlarga erishish uchun hali ancha pog`onalarni bosib o`tishi darkor. Bu yo`lda o`qituvchi-pedagoglarga bo`lgan hurmat va ularning jamiyatdagi o`rnining yanada yaxshilanishi juda muhim omil hisoblanadi. Mazkur tamoyil ta`lim tizimimiz rivojlanishining ustuvor yo`nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so’zlar: Mantiqiy, yetuk bilim va saviyaga, ijodiy faollik, mantiqiy fikrlash, mustaqillik, tashabbuskorlik, liderlik, ijodiy fikrlash.

Darhaqiqat, avloddan-avlodga o`tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz hamda mentalitetimiz negizida, shubhasiz, o`qituvchiga bo`lgan hurmat va e`tibor mujassam. O`qituvchiga ko`rsatiladigan hurmat juda ham ko`p omillar ta`sirida shakllanadi. Ulardan eng birinchisi – hukumat tomonidan beriladigan e`tibor hisoblanadi. Agarda o`qituvchilarga etarlicha sharoit yaratilib berilsa, jamiyatdagi o`rni mustahkamlansa, haqiqatdan ham boshqa barcha kasblarning otasi sifatida qaralishi ta`minlab berilsa, shubhasiz, bu o`z natijasini beradi. Shunday sharoitlarda tarbiyalanib chiqqan har bir avlod o`zidan keyingi avlodga ham shu an`anani meros qilib qoldiradi.

Hozirgi o`qituvchilarimizning yutuqlari, dars jarayonlarini tashkil etishdagi o`ziga xosligi bilan birga, mustaqil fikrlashga asoslangan ta`lim dasturi dolzarbligi hamda innovatsion ta`limda qo`llaniladigan metodlar va pedagogik texnologiyalarni to`laqonli ochib berishga qaratilgan.

**Fikrlashga asoslangan ta`lim dasturining** maqsadi – ta`lim mazmunini faqat yodlatish bo`libgina qolmay, balki, talabaning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Bunday qobiliyatni rivojlantirish uchun ta`lim jarayonida darslar mazmunini uzluksiz mantiqiy, matematik fikrlashga doir muammoli savol va topshiriqlar, masala va mashqlar, turli xil ta`lim mazmunini ochib beruvchi, bir – birini to`ldiruvchi, murakkab metodlar bilan boyitish lozim.

Bunda fan mavzusiga mos metodlardan foydalanish ma qsadga muvofiqdir*(1 – jadval).*

“Bo`sh o`rinni to`ldiring” metodi
1 – jadval .

Hujayraga oid fan yutuqlari	Fanga kiritilgan yillar	Amalga oshirgan olimlar	Tajribasi
	1625 – yil		
Hujayrani Cellula deb atadi			
			Hayvon hujayrasi, spermatazoidni va eritrotsitlarni 270 marta kattalashtirib o`rgangan.
	1831 – yil		
	1848 – yil	Vilgelm Gofmeystr	
Amitozni aniqladi	1841 – yil		
	1871 – yil	Eduard Strasburge	
	1878 – yil	Shleyxer	
Sitokinezni aniqladi	1887 – yil		

Albatta bunday murakkab topshiriqlarni bajarish uchun talaba fanga oid yetarli nazariy bilim, ko`nikma va malakaga ega bo`lmog`i lozim.

Yuksak bilim, ko`nikma va malakaga ega kadrni janiyatga yetkazib berish uchun esa yetuk bilim va saviyaga, o`qituvchilik ma`suliyatini his eta oladigan mutaxassis zarur.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida esa murakkab darajada fikrlaydigan kadrlargaga ehtiyoj ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda fan sohasida bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishga yo`naltirilgan mutaxassislarni an`anaviy tayyorlash zamonaviy talablardan ortda qolmoqda. Zamonaviy ta`limning asosi o`quv fanlari emas, balki o`quvchilarning fikrlashi va faolligi bo`lishi kerak. Har qanday oliy o`quv yurtining vazifasi nafaqat yuqori malakali mutaxassislarni bitirishi, balki talabalarni tubdan yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga, ularni ishlab chiqarish muhitining real sharoitlariga moslashtirishga qo`shishdir. Shu bilan birga, o`quv jarayonida talabalarning quyidagi qobiliyatlarini rivojlantirish muhim: ijodiy faollik, mantiqiy fikrlash, mustaqillik, tashabbuskorlik, liderlik, ijodiy fikrlash, o`z – o`zini baholash, rasionalizasiya qilish va bozorning o`zgaruvchan ehtiyojlariga tez moslashish qobiliyati. Bunday ko`nikmalarni egallash

ko`p jihatdan bo`lajak mutaxassislarni tayyorlash mazmuni va uslubiga bog`liq.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda talabalarni o`qitishning innovatsion yondashuvlari tizimli bo`lishi va bo`lajak mutaxassislarni tayyorlashda o`qitish va tarbiyaviy ishlarning barcha jabhalarini qamrab olishiga alohida e`tibor qaratiladi. Shuningdek, ta`lim mazmuni, o`qituvchilarning kasbiy va pedagogik tayyorgarligi, yangi texnologiyalar va o`qitish usullarini ishlab chiqish bo`yicha nazariy va amaliy yondashuvlarni qayta ko`rib chiqish zarur. Bu masalalarni J. Martin, L. Svenson, I. Lerner, M. Skatkin, V. Bespalko, V. Slastenin, O. Pexota, S. Sysoeva va boshqalar kabi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar faol o`rganishadi. Ammo, o`quvchilar uchun innovatsion o`qitish usullarining xususiyatlari va o`ziga xos xususiyatlarini ko`rib chiqish, shuningdek, ta`limning har xil innovatsion shakllaridan foydalanishning afzalliklari va istiqbollarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. O`quv jarayonida qo`llaniladigan innovatsion ta`lim texnologiyalarining asosi o`quvchilarning individual, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ijtimoiy buyurtma, bo`lajak mutaxassislarning kasbiy manfaatlari bo`lishi kerak. Shuning uchun oliy ta`limda mutaxassislar tayyorlashda innovatsion shakl va usullardan foydalanish ta`lim va o`qitishning maqsad va vazifalarini pragmatik tushunish bilan birlashtirilishi kerak.

Zamonaviy psixologik va pedagogik adabiyotlarda ta`kidlanishicha, innovatsion uslublar o`quv jarayonini rivojlantirish va takomillashtirishga, zamonaviy jamiyatning turli sohalarida professional faoliyat uchun mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ko`plab o`qitish texnologiyalarida o`z aksini topgan. Ular talabalar o`rtasida kasbiy bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish va mustahkamlash uchun sharoit yaratadi, bo`lajak mutaxassisning kasbiy fazilatlarini rivojlantirishga hissa qo`shadi. O`qitish jarayonida o`qituvchilar tomonidan innovatsion usullardan foydalanish turli fanlarni o`qitishda stereotiplarni bartaraf etishga, kasbiy vaziyatlarga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishga, o`quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Endi masalaning ikkinchi tomoni, albatta jamiyatni har bir qatlamini o`z kasbining yetuk mutaxassisi hisoblangan kadr bilan ta`minlashda moddiy ta`minot va investitsiyaning ham o`rni beqiyos!

Jumladan, ta`limga sarflanadigan xarajatlar ijtimoiy taraqqiyotning asosiy ko`rsatkichlaridan biri hisoblanadi, chunki ular davlat va jamiyat tomonidan fuqarolar ta`limiga qaratilayotgan e`tibor darajasini aks ettiradi. Ta`limga investisiyalar nafaqat mamlakatning inson kapitalini yuksaltirish va iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini yaxshilashning muhim usuli hisoblanadi, balki ular ham o`ziga xos qiymatga ega, chunki ta`lim odamlarning dunyoqarashini kengaytiradi, o`z-o`zini anglash imkoniyatini beradi va o`z materiallarini yaratishga hissa qo`shadi, farovonlik va sog`lom turmush tarziga bevosita bog`liq. Shu bilan birga, bu ko`rsatkich ma`lum bir davlat ichidagi har xil ijtimoiy guruhlar o`rtasida ta`limga sarflanadigan xarajatlar qanday teng yoki notekis taqsimlanganligini, ta`limga davlat va xususiy xarajatlar nisbati va bu xarajatlar tarkibi, shuningdek, ular bilan bog`liqligini hisobga olmaydi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, bir qator rivojlanmagan mamlakatlarning nisbatan yuqori lavozimlari, qoida tariqasida, ushbu davlatlarning xalqaro institutlari va xayriya tashkilotlari tomonidan moliyalashtiriladigan ommaviy savodsizlikni yo`q qilish dasturlari bilan bog`liq. Shuning uchun bu reytingni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturining ta`lim darajasi bo`yicha dunyo mamlakatlari reytingi bilan birgalikda tahlil qilish tavsiya etiladi.

Mamlakatimizda eng katta investitsiya ta’limni qo‘llab-quvvatlashga

qaratilgan e’tibor bu xalqimizning ko‘zlagan oliy maqsadlaridan biridir. Davlatimiz rahbari Murojaatnomasining ikkinchi yo‘nalishi aynan ta’lim sohasiga yo‘naltirilgan.

Prezidentning ta’kidlashicha: “**ta’lim sifatini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir.** ***Ta’lim, ta’lim, ta’lim va yana bir marta ta’lim.*** Men olti yil oldin shu masalalarga chuqur e’tibor qilib, birinchi kundan beri ta’limimiz haqida ko‘p gapiraman. Agar ta’lim bo‘lsa, bilim bo‘lsa, sifat o‘zgaradi. Ta’lim bo‘lmasa, sifat o‘zgarmasa, e’tibor ham o‘zgarmaydi», — degan hayotiy da’vat har birimizning, ota - onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o‘rin egallagan. Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta’lim dargohlarida o‘qituvchi va murabbiylar bilan sifatni oshirish bo‘yicha ular qo‘ygan masalalarni birgalikda hal qilishimiz zarur. Ta’lim insonlar turmushining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilashga poydevor qo‘yadi va odamlarni qashshoqlikdan olib chiqishda asosiy rol o‘ynaydi. So‘nggi o‘n yillikda barcha darajadagi, xususan, qizlarning ta’lim olish va o‘qishga kirishini yaxshilash borasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Xususan xotin-qizlarga ta’lim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab:

a) oliy ta’lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan sirtqi va kechki ta’lim shaklida o‘qiyotgan xotin-qizlarning ta’lim kontraktlarini to‘lash uchun 7 yil muddatga foizsiz ta’lim kreditlarini moliyalashtirish maqsadida tijorat banklariga Davlat budjetidan har yili 1,8 trillion so‘m resurs mablag‘lari yo‘naltirilsin.

b) davlat oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida, Davlat budjetidan har yili kamida 200 milliard so‘m moliyalashtirilsin.

d) xorijiy oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim dasturlari bo‘yicha — 50 nafar, magistratura ta’lim dasturlari bo‘yicha — 10 nafar xotin-qizlarga har yili “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali qo‘shimcha grantlar ajratilsin. Ta'lim sifati - talabalar tomonidan olingan ta'limning davlat tomonidan belgilangan ma'lum bir standartga muvofiqligi.

Xulosa o`rnida shuni aytib o`tish darkor: Ta'lim sifati quyidagilardan iborat: maqsadlar sifati, sharoitlar sifati, o'quv jarayonining sifati va yakuniy natijalar sifati. Ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarning xilma-xilligini qayd etib, ularni uchta yo‘nalish: ta’lim natijalari, o‘quv jarayonini tashkil etish va ta’lim sifatini baholash tizimiga ajratadi. Zamonaviy ta'lim standarti maktab o'quvchilarining sifatli ta'lim olishiga mo'ljallangan. Qachonki, ta`limning sifat ko`rsatkichlari o`z natijasini to`laqonli oqlasa, ta`limda ham cheksiz o`sish yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyevning «Yangi O‘zbekiston Strategiyasi» nomli kitobi
2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent, 2008.
3. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risidagi” qonuni
4. O‘zbekiston Respublikasi „Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi“. T, 1997.